

## KIBERTERRORIZM VA UNING SALBIY OQIBATLARI

**Nurmanova Marjona Elman qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs talabasi

**Toshtemirov Rustam Abdurashidovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”

[E-mail-rustambek22091985@gmail.com](mailto:E-mail-rustambek22091985@gmail.com)

### *ANNOTATSIYA*

*Mazkur tezida kiberterrorizm va uning salbiy oqibatlari batafsil yoritib berilgan. Tezis davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Aniq faktlarga asoslangan holda mavzu ochib berilgan.*

***Kalit soʻzlar:** kiberterrorizm, zamonaviy, ilgʻor texnologiyalar, kompyuter, salbiy oqibatlari, gʻaraz niyatlariga erishish, harbiy nizo, kompyuter terrorizmi, odamlar hayoti, insoniyat.*

## CYBER TERRORISM AND ITS NEGATIVE CONSEQUENCES

### *ABSTRACT*

*Cyberterrorism and its negative consequences are explained in detail in this thesis. Reasonable thoughts and opinions were used during the thesis. The topic is explained based on clear facts.*

***Key words:** cyber terrorism, modern, advanced technologies, computer, negative consequences, achieving malicious intentions, military conflict, computer terrorism, human life, humanity.*

## КИБЕРТЕРРОРИЗМ И ЕГО НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

### АННОТАЦИЯ

*В диссертации подробно раскрыт кибертерроризм и его негативные последствия. В ходе диссертации использованы обоснованные мысли и мнения. Тема объяснена на основе ясных фактов.*

**Ключевые слова:** кибертерроризм, современные, передовые технологии, компьютер, негативные последствия, достижение злонамеренных намерений, военный конфликт, компьютерный терроризм, человеческая жизнь, человечество.

**Kiberterrorizm** (*lot, cyber terrorism; cyber - “kiber”, terror – “qo‘rquv”, “dahshat”*) – zamonaviy, ilg‘or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o‘zining g‘araz niyatlariga erishishdan iborat.

**Kiberterrorizm** (kompyuter terrorizmi) ostida g‘arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog‘idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo‘rqitib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. *Kiberterrorizm* insoniyat uchun jiddiy xavf bo‘lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy qurolga tenglashtirish mumkin. Hatto u o‘z yangiligi tufayli to‘la-to‘kis o‘rganib ulgurilmagan quroldir.

Masalan, kompyuter tarmoqlari orqali bank tizimlariga kirish va u yerdan pul mablag‘larini o‘marish. Misol sifatida kredit kartalari bilan amalga oshirilayotgan afera (g‘irromlik)lar har yili 400 million dollar atrofida zarar keltiradi. Viruslardan ko‘rilgan zarar esa 12 milliardni, mualliflik huquqining buzilishi 250 milliardga yaqin zarar keltiradi.

Turli kompyuter tizimlariga kirish bilan kiberterrorchilar har xil, shu jumladan yashirin axborotga ham yo‘l topadilar. Zamonaviy kiberterrorchilikka 1998 yili

AQShda amalga oshirilgan qotillik ham misol bo'la oladi. Internet orqali AQSh klinikalaridan birining tarmog'iga kirib olgan terrorchi (u yerda FBR himoyasida og'ir ahvoldagi muhim guvoh davolanayotgan edi) qator to'siqlardan o'tadi va kardiostimulyatorni ishdan chiqarib, oqibatda mijozni halok qilishga erishadi[1].

**Internetning** “*liminal makon*”i ma'naviy yoki diniy **tajribaga** (absorbtsiya, asketlik, eskapizm, yagonalik, muloqot) yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Hozirgi kunda ofisda faoliyat yurituvchilar hayot tarziga monand 10 daqiqali ma'naviy mashqlar tajriba orttirishga imkon beradi. Zamonaviy sufiylar internet orqali bunday aloqalar vositasida murshid va murid o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaxshilanayotganini e'tirof etadilar. *Internet-radio* kabi yangi texnologik imkoniyatlar yordamida tinglovchilarni “psixonavigatsion sayohatga” chorlaydilar.

*Kompyuter-media* vositalari diniy **amaliyotga** chuqur singib ketishi natijasida kibermakon muhim rituallar maydoniga hamda muayyan dinga targ'ib qilish manbai va vositasiga aylangan. Bundan tashqari jamiyatdan uzoqlashgan ma'lum bir yoshlar va ayollarni kiber-ma'naviyat rasmiy ibodatxonalardan ko'ra ko'proq o'ziga jalb etadi. Amaliy so'rovlar esa mazkur jarayonlar kelajakda yoshlarni qamrab olishini ko'rsatgan. Ammo ba'zilar internet jonli, ta'sirchan ma'ruza bilan bellasha olmasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, onlayn-jamoalar tez suratlar bilan o'zgarayotgan dunyoda “*to'g'ri yo'l*” da bo'lishning amaliyoti qanday bo'lishiga oid savol va mulohazalarni muhokama qiluvchi muhim “maydon”ga aylandi.

Umumiy olganda kibermakon vaqt va makon chegarasini bosib o'tish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy qiyinchiligi yoki jismoniy kamchiligi mavjud bo'lgan ma'lum diniy amallarni amalga oshirish imkoniyatini oshiradi. Masalan, Santyago-de-Kompomtelaga kiber-ziyosatga borish yoki Hindistondagi muqaddas joylarda “pudju”ni amalga oshirishlari mumkin. Sikxlar esa har kuni Amritsardagi Oltin xaramdan o'qilayotgan Siri Guru Grantxa Saxibning muqaddas kitobini eshitishlari mumkin.

Muloqotga kirishishning yana bir ko'rinishi bo'lgan **missionerlik**, ma'lum diniy ta'limning o'sishi va ta'siri doirasining kengligi bois alohida ko'rib o'tish zarur.

Bugungi kunda din va e'tiqod erkinligi huquqi eng bahsli masaladir. Masalaning muammoli jihati shundaki, yangi murojaat qilganlarni dinga targ'ib qilinishi agressiv ruhda amalga oshirilayotganidadir[2].

Tennessee universiteti Din, Media va Madaniyat yo'nalishi talabalari bergan ma'lumotga ko'ra, o'zlarini "kiber-evangelistlar" deb atovchi ba'zi xristianlar, musulmonlar bilan onlayn muloqotga kirishib ularning aqidalari va amaliyotlari haqida bahslashadilar. Ular "bot"ning yangi fenomeni, ya'ni chatlarga Bibliya matnlarini etkazish uchun suzib chiquvchi dasturlar orqali matnli ma'lumotni (xuddi paydo bo'luvchi oyna kabi) bir lahzada yuborish imkoniyatidan foydalanadilar.

Muqaddas matnlarning *marketingi* internet orqali katta biznesga aylandi. Diniy va ma'naviy ehtiyojga mos keladigan barcha narsani sotib olish mumkin. Diniy tanishuv saytlarida esa qalban mos insonni topish oddiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

Kompyuter media vositalarida kasalliklarga davo va muammolarga echim topish keng rivojlanmoqda. Guru, evangelistlar, maslahatchi ekstrasenslarga duoli so'rov yuborish yoki diniy va amaliy muammolarga javob topish mumkin. Bunga ko'pchilikni murojaatning anonimligi va kuchli diniy etakchining ishtiroki jalb etadi. Ba'zi amaliyotchilar Internet orqali samaraliroq davolashlarini ta'kidlaydilar. Misol tariqasida gollandiyalik antropolog, maxsus sertifikatga ega an'anaviy davolovchi *Vim van Binsbergen* sayti va uning 2003 yilda chop etilgan "*Madanyatlararo to'qnashuvi*" kitobini keltirish mumkin.

O'tgan asrning 90-yillarda «Jahon o'rgimchak to'ri» — Worldwide Web gipermatn sahifalari tizimi vujudga keladi. CERN (Shveytsariya) kompaniyasi xodimi Tim Berners-Li hujjatlarni gipermatnli chegaralash tili — HTML tilini ishlab chiqadi. 1993 yilda NCSA (National Center for Supercomputing Application) xodimlari Mark Andressen va Erik Bina ilk brauzer — "Mosaic X"ni ishlab chiqishadi. Keyinchalik Mosaic Communications Internet sahifalari brauzerining birinchi versiyasi - Netscape Navigator 1.0 versiyasini taqdim etadi. Shuni aytib o'tish joizki, 90-yillarda Maykrosoft kompaniyasi butun dasturiy ta'minot bozorini boshqaradi, Netscape

Navigator dasturi esa o'zining onlayn imkoniyatlari orqali Windows bilan raqobatlashishi mumkin edi. Shunda Bill Geyts ularning raqobatchi ekanini anglab, xodimlariga bu kompaniyani darhol "o'yin"dan chiqarish to'g'risida buyruq beradi. Shu tariqa brauzerlar qarama-qarshiligi boshlanadi. 1995 yil 7 dekabrda Maykrosoft Internet Explorer (IYE) brauzerini ishlab chiqadi. 1997 yil sentabr oyida brauzerlar qarama-qarshiligi Maykrosoft kompaniyasining g'alabasi bilan tugaydi. O'sha vaqtda Luis Mone Alta Vista qidiruv tizimini ishlab chiqadi. Shu vaqtning o'zida esa Sietldagi bo'lajak "Internet do'konlar qirol" - Amazon ish boshlaydi. 90-yillar oxirlariga kelib, Compaq kompaniyasi Alta Vista qidiruv tizimini 3 million dollar evaziga sotib oladi. O'shanda dastlabki *internet* auktsionlar, portallar, shuningdek, *internet* tarmog'ida birinchi marta MRZ formatidagi musiqiy fayllar paydo bo'ladi. Oradan bir yil o'tgach, 1998 yilning mart oyida Netscape kompaniyasi jahon navigatorining boshlang'ich kodlarini ochadi va butun dunyodagi kompyuter ixlosmandlari birlashib, Mozilla Organization deb nomlangan hamjamiyat - kichik loyihaga asos soladi. Keyinchalik u Mozilla Foundation deb qayta nomlanadi. Hozirgi kunda *internet* brauzerlar juda ko'payib ketgan. Ular orasida eng ommalashganlari, albatta — Internet explorer, Flock, Netscape, Mozilla Firefox, Avant browser va boshqadir[3].

Ma'lumki. 90-yillarning o'rtalarida *internet* tarmog'iga tijorat nuqtai nazaridan qaralmas edi. Ammo 1995- yilning oxirlarida Yahoo kompaniyasi birinchi bo'lib *internet*da reklama targ'ibotini boshlaydi va *internet* orqali daromad ko'rish mumkinligini tushunib yetadi. Tez orada Yahooning raqiblari ham paydo bo'ladi. Ularning orasida eng xavfli talabalar tomonidan yaratilgan Excite edi. Ammo Yahooga qaraganda Excite takomillashtirilgan tizimdan foydalanar edi. O'sha kezlarda ko'proq daromad topish maqsadida Yahoo va Exciteda reklamalar, foydali maslaxatlar, pochta servislari va chatlar tobora ko'payib, bu qidiruv tizimlari ko'ngilochar portallarga aylana bordi. Yahoo va Excite o'rtasidagi raqobat shafqatsiz edi, ammo qidiruv tizimlari o'zlarining dastlabki yo'nalishlari bo'lgan ma'lumot qidirishni unutib qo'ydi. Zarur ma'lumotni topish lozim bo'lganda Yahoo va Excite keraksiz narsalarni chiqarib berardi. Ba'zan kerakli ma'lumotlarni izlab topish uchun bir kunlab vaqt ketardi. Shu bois

keskin tarzda farqlanuvchi yangilik zarur edi va buning javobi Stenford universitetida topiladi. Sergey Brin va Larri Peyjlar 1998 yilning birinchi yarmida yangi, istiqbolli texnologiyani rivojlantirib, bu yangi qidiruv tizimiga Google deb nom berishdi. O'sha paytda Stenford universitetining yotoqxonasiidagi Peyjning xonasi ma'lumotlarni qayta ishlash markazini, Brin xonasi esa ishchan ofis vazifasini bajarar edi. Og'aynilar o'z g'oyalarini sotmoqchi bo'lishganida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunda ular biznes reja tayyorlab, o'z kompaniyalarini tashkil etish uchun mablag' izlashga tushadi. Natijada dastlabki investitsiyalar hajmi 1 million AQSh dollarini tashkil etadi. Bu pullar qarindosh va do'stlardan, shuningdek, investorlardan to'planadi. Jumladan, Sun Microsystems kompaniyasi tashkilotchilaridan biri Endi Bextolsxaym g'oya mualliflariga 100 ming AQSh dollariga chek beradi. Google qidiruv tizimi kuniga 10 mingta so'rovga javob beradi va PC Magazine jurnali tomonidan 1998 yilning eng yaxshi 100 ta *internet* sayti qatoriga kiritiladi. Bugungi kunda Google eng mashhur va muvaffaqiyatli qidiruv tizimlaridan biri hisoblanadi, uning asoschilari Brin va Peyjning daromadi esa bir necha milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Bugun kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning saviyasini belgilab beradigan omilga aylanib bormoqda[4].

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshtemirov R.A., Virtual haqiqat va uning insonga ta'siri, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2-qism, 2023, 306-309 B., <http://interscience.uz>
2. Toshtemirov R. A., (2023). Media education is an important factor in protecting young people from negative information. SCHOLAR, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, 2023, Pp 187–195.
3. Grinin L.E., Korotaev A.V. Sotsialnaya makroevolutsiya i istoricheskiy prtsess. // *Filosofiya i obshestvo*. 2007. № 2. –s. 19-66.
4. Jo'raev T. Milliy davlatchilik va xavfsizlik. –T.: “Akademiya”. 2007.